“MULOQOT DAROMAD BOSQICHI” NING KASB KOR BILAN BOG‘LIQ XOSLANISHINING (OBYEKTIV VA SUBYEKTIV) IJTIMOIY MUHIT BILAN BOG‘LIQ JIHATLARI

Raxmonqulova Maftunaxon Toxirjon qizi

Social environment-related aspects (objective and subjective) of the profession-related characterization of the "Muloqot Daromad Bosqichi"

Annotatsiya: Ushbu maqolada muloqot daromad bosqichining kasb kor bilan bog‘liq jihatlari atroflicha yoritilib berilgan. Turli kasb egalarining nutqidagi o‘ziga xosliklar va ular ishlatadigan iboralarning kundalik hayot bilan naqadar bog‘liq ekanligi haqida ma’lumotlar berilgan.

Abstract: In this article, the career-related aspects of the income stage of communication are detailed. Information is given on the peculiarities of the speech of various professions and how the expressions they use are related to everyday life.

Kalit so‘zlar: muloqot daromad bosqichi,kommunikant,muloqot xulqi,component.

Key words: communication income stage, communicator, communication behavior, component.

Inson hayotda ma’lum bir kasb egasi sifatida yashaydi va hayot kechiradi. Shu kasbda ishlash jarayonida u turli xil muloqot bosqichlarini boshdan kechiradi. Biror tilning taraqqiyoti uning turli ijtimoiy sohalarda ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Turli kasb egalari muloqot xulqining vazifa jihatdan xoslanishi deb, ular ishlatayotgan so‘zlarning xilma xiligiga va ular bajarayotgan vazifalarini turfa xiligiga aytiladi. Jamiyatni kuzatib borar ekanmiz undagi insonlar kasbi yuzasidan turli xil vazifalarni bajarishadi va ulardagi o‘ziga xosligini tadqiq etishda ularning kommunikativ aktdagi nutqi, o‘zini tutish holatlari va nutqini yo‘naltiruvchi xarakterli parametrlari zaruriy komponent bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, har bir odamning hayotdagi ro‘li ya’ni uning kasb kor jihatdan bog‘liqligini belgilab beradigan asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.Bir inson har xil vaziyatda turli xil pozitsiyalarda bo‘ladi. So‘zlovchi ishlatayotgan har bir so‘zda bevosita, u shug‘illanadigan kasbning belgilari bilinib turadi. P.Qodirovning “Olmos kamar” asarida arxitektorlarning suhbatini misol tariqasida keltirish mumkin: Nabi Sadriyevich “Metro tunnelini Bo‘zsuvning tagidan o‘tqazish masalasi kun tartibida turibdi. Shu munosabat bilan yaqinda biz yangi bir loyihani tasdiqdan o‘tkazdik. Balki eshitgandirsiz? Rafiqangiz Vazira A’zamova aytganlari yo‘qmi?.

Shunga o‘xshash yana bir misol sifatida Mark Twainning “Circle of love” hikoyasini ham olishimiz mumkin. “It was that chill which only fear can put in you. He said “I’m here to help you ma’am.Why do not you wait in the car where it is warm.By the way my name is Bryan.

Muloqot jarayonini tadqiq etishda insonning aynan shu paytdagi ruhiy va ijtimoiy holatlardan ajratib qo‘yish tadqiqot imkoniyatini chegaralab qo‘yadi. Aslida har qanday muloqot jarayonida qaysidir ruhiy va ijtimoiy holatlar ma’lum ma’noda “dirijyorlik” qiladi. Xuddi shu holatlar turli kasb egalarining o‘zaro muloqotida muayyan belgilari bilan ajralib turadi. Bunday belgilar, asosan, turli ijtimoiy sohadagi mavjud kasbiy etika asosida shaklllanib, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirish uchun har bir shaxsning xulq-atvor, odob, xatti-harakatlarini tartibga soladi. Vaholonki, bunday tartib barcha kasblarda mavjud bo‘ladigan ichki talab va tartib, maqsad va manfaat, mavqe va faoliyat turlarining birikish nuqtasida ma’noga ega bo‘ladi hamda uni umumlashtirib kasb etikasi sifatida baholash mumkin.

Inson qaysi soha vakili bo‘lishidan qat’i nazar jamiyatdan tashqarida, yakka holda yashamaydi, balki o‘zining kundalik ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqqan holda,

odamlar orasida hayot kechiradi va turli toifadagi insonlar bilan, katta-u kichik mehnat jamoalari bilan muloqotda bo‘ladi. Mana shu muloqot jarayonida uning qaysi ijtimoiy soha yoki guruh vakili ekanligini kuzatish va uning ijtimoiy markerlarini ajratish mumkin.

Chunonchi, psixologlardan A.A.Bodalov, V.N.Panferovlar sotsiumning birinchi muloqoti davrida taassurot qoldiradigan tashqi belgilari bo‘yicha eksperiment tarzida maxsus tadqiqot o‘tkazganlar. Ularning ta’kidlashlaricha, kishilarning nutqidan tashqari ko‘z qarashi, gapirish paytidagi mimikasi (yuz harakatlari), jestlari, kinesikasi (tana harakatlari), talaffuzidagi belgilari bilan ajratib olish mumkin. Chunki bu tashqi belgilar tinglovchining xotirasida uzoq saqlanib qolar ekan.

Rus sotsiolingvisti L.P.Krisin esa bunday tashqi belgilar har bir sohaga xosligi bilan ham ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, ularni ijtimoiy markerlar, deb ataydi. Olim ijtimoiy markerlarni sotsiolingvistik nuqtai nazar bilan baholab, ikki turga, ya’ni kommunikativ va ramziy turga ajratadi. Bu ijtimoiy markerlarning kommunikativ turida til birliklari ma’lum ijtimoiy doirada doimiy muloqot vositasi vazifasini bajarashini, ramziy turida esa, so‘zlovchining u yoki bu ijtimoiy sohaga tegishli ekanligini ko‘rsatib turuvchi tashqi xususiyatlari belgi bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlaydi.

Bunga misol tariqasida “Olmos kamar” asarida A’zam ota sog‘ligining yomonlashganini sezgandan so‘ng o‘g‘illariga “O‘g‘illarim, -dedi, -men ham pishib qolganga o‘xshayman. Yetmish uchga kiryapman, armon qiladigan joyim yo‘q”. A’zam otaning kasbi dehqonchilik bo‘lib, u asl mirob hamdir va aynan shu kasbi tufayli u “pishib boryotibman” deyish orqali u o‘zini pishib yetilgan va umri tugagan mevaga o‘xshatadi.

Adiblarning o‘zlari asarlarida ham kitobxonni ma’lum bir vaziyatga tayyorlaydi. “My name is Carrie Brown. I was a famous model. Now I am a famous criminal. I am going to tell you the story of how I got here, and I am going to tell you why I am innocent. But please, give me a bit of time. Right now. I am scared and cold.

Har bir vaziyatning o‘ziga xos bo‘lgan xusisiyatlari ham bo‘ladi, misol uchun, Abror sovchilikga borgandagi nutqini misol tariqasida keltirish mumkin. “Yoshlarning yulduzi yulduziga to‘g‘ri kelibdi,-dedi Abror qizning otasiga qarab, Bo‘lmasa sizlar qayoqda edilaringiz-u biz qayoqda edik?” Nasib bo‘lsa endi qarindosh bo‘lamiz. So‘zlarda so‘vchilikda aynan ishlatiladigan boshlanmalarni ko‘rishimiz mumkin. Doimo so‘vchilarning daromad bosqichi shu kabi bo‘ladi. Bunda mehmonga kelgan ayollar mezbonlarni shu gap orqali sovchilik kelishgani bildirib qo‘yishadi.

Umuman kasb etikasida so‘zlovchilarning ishlatayotgan so‘zlarida ham bevosita bilinib turadi. Misol uchun “ Sherzod talabaligida ham biror narsadan ikkilansa “umuman”, “taxminan”, “ shaxsan” degan so‘zlarni ko‘p ishlatardi. Hozir shu Abrorning esiga tushdi.U o‘rtoqlarcha samimiyat bilan kulimsirab:

- Sherzod, avvalgi “ umuman”, “ taxminan”larni yig‘ishtirib qo‘yaylik,-dedi.-Siz bilan biz shu ishlarni ipidan-ignasigacha biladigan mutaxassislarimiz. Bu uy bizning hovliga tushsa, noto‘g‘ri bo‘lishini ikkovimiz ham aniq sezib turibmiz. Shundaymi?
- Shundaylikka shundayku-ya!
- Agar siz astoydil kirishsangiz, shu noto‘g‘ri ishning oldini olish qo‘lingizdan keladi. Chunki bu ishni sizga ishonib topshirishgan.Dalillar yetarli. Kooperativ uyga naryoqda joy bor.
- Bo‘lmasa xarakat qilamizda
- Taxminan emas-a?
- Yo‘q, aniq! deb kuldi Sherzod.

Biz bilamizki, “Olmos kamar” asarining qahromonlarining kasbi arxitektor bo‘ladi,Ularning ish faoliyati matematika bilan uzviy ravishda bog‘langan bo‘ladi. Shundan ko‘rishimiz mumkinki, Sherzodning nutqida shunday va taxminan degan so‘zlarni ko‘p ishlatilishini.

Bulardan tashqari, harbiylarning ijtimoiy markerlarini umumlashtirsak, o‘z-o‘zidan harbiy sohaning o‘ziga xos xarakteriga tavsif kelib chiqadi. Ya’ni harbiylar, asosan, erkaklardan tarkib topadi va o‘ziga xos maxsus kiyim (forma)ga ega bo‘lish bilan birga stilistik-semantik jihatdan o‘ta aniq, qisqa, lo‘nda ifodaviy va tasviriy nutqqa, erkaklarga xos bo‘lgan qattiqqo‘llik va mardlik xususiyatiga, qo‘pol va dag‘al muomalaga, yuqori va fonatsion talaffuzga ega. Mana shu tavsif harbiy sohaga xos xarakter ma’nosini ifodalab beradi.

Chunki doimiy ravishda muayyan faoliyat bilan shug‘ullanish oqibatida kishilar ma’lum qolipga tushib, kasb xarakteri bilan ruhiy o‘lchamlarda tenglashib qoladi va o‘ziga xos stereotipga aylanadi.Misol tariqasida “Olmos kamar” asarida keltirilgan askar nutqdan oladigan bo‘lsak, Mayor uning yelkasiga tushgan o‘siq sochiga,yuzini qoplab yotgan soqoliga noxush nazar tashladi-da o‘tiring – deb stulini ko‘rsatadi. Bu muloqotda askarlar nutqida –tushundingizmi? Qanday javob berish kerak.Boring bajaring degan nutq ko‘p ishlatiladi.

Misollarda keltirilgan harbiylarning ijtimoiy markerlarini umumlashtirsak, o‘z-o‘zidan harbiy sohaning o‘ziga xos xarakteriga tavsif kelib chiqadi. Ya'ni harbiylar, asosan, erkaklardan tarkib topadi va o‘ziga xos maxsus kiyim (forma)ga ega bo‘lish bilan birga stilistik-semantik jihatdan o‘ta aniq, qisqa, lo‘nda ifodaviy va tasviriy nutqqa, erkaklarga xos bo‘lgan qattiqqo‘llik va mardlik xususiyatiga, qo‘pol va dag‘al muomalaga, yuqori va fonasion talaffuzga ega. Mana shu tavsif harbiy sohaga xos xarakter ma'nosini ifodalab beradi.

Soapy hears a person near him. “Excuse me,” a policeman says. “What are you doing here?” “What is your problem. Shu misoldagi politsiyachi bergan qisqa savol javoblardan ham ularning nutqidagi o‘ziga xoslikni bilib olishimiz mumkin.

Bundan tashqari, kommunikantlarning ijtimoiy roli ularning jinsi va yoshiga xos bo‘lgan muloqot xulqiga ta'sir qilib, ana shu muloqot xulqi zamirida yangi muloqot xulqi va xarakterini ham shakllantiradi. Shu o‘rinda Abdulla Qahhorning “Sinchalak” qissasidagi Saida obrazini olaylik. Muallif ta’rificha, Saida “... yigirma ikki yoshlardagi baland bo‘yli, xushqomat, juda nozik qiz...” (44-bet). Shunday ekan, unda o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan muloqot xulqi, ya'ni, noziklik, nazokatlilik, mutelik, bir oz tortinish, xurkaklik, ojizlik, ohistalik shakllangan bo‘ladi.

Biroq Saida “Bo‘ston” kolxoziga partiya tashkilotining sekretari lavozimiga tayinlanganidan keyin undagi o‘zbek ayoli muloqot xulqiga xos bo‘lgan xususiyatlar bilan birga rahbarlik fazilatlari ham shakllanadi. Xizmat yuzasidan hatto kolxoz raisi Qalandarovni ham so‘roqqa tutadi. So‘roq qilganda ham oddiy o‘zbek ayoliga xos tarzda emas, rahbar sifatida erkaklarga xos achitib, zaharhanda qilib so‘roq qiladi:

- Bu ariza nima uchun hozirgacha muhokama qilinmadi?

Yoki:

- Kolxozda xotin mukofotga beriladimi?.. kabi.

Shuningdek, Saida Qalandarov bilan maslahatlashganda ham rahbarlarga xos dadillik, cho‘rtkesarlik kabi fazilatlari bo‘rtib turadi. (Qalandarov):

- Mayli, meni byuroga kirgizmay qo‘ya qoling. Ko‘zlagan odamingiz bormi? - dedi.
- Yo‘q, Arslonbek aka, muvofiq odamni siz bilasiz (79-bet) kabi.

Bundan tashqari, Saida ijtimoiy roli ta’siri natijasida rasmiylik va jiddiylik yo‘g‘rilgan ohangda majhullik nisbatida ham gapiradi:

- Bunaqa savollar majlisda berilsin!
- Raisning o‘zi borida gapirilsin!” (100-b).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Крысин Л.П. Социолингвистические аспекты изучения современного русского языка. – М.: Наука, 1989. – С. 145.
2. Muxammadiev.N.E. “Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati “Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi IIB Akademiyasi, 1998-B8
3. Rasulov Qahromon Abdug‘anievich “O‘zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi”-T.2008. Filologiya fanlari nomzodligini olish uchun yozilgan dissertatsiya B.30
4. Rasulov Qahramon Abdug‘anievich “O‘zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi” –T. 2008. Filologiya fanlari nomzodligini olish uchun yozilgan dissertatsiya.B. 20
5. Pirimqul Qodirov “ Olmos kamar” asari B.45

WORDLY KNOWLEDGE